

6-1-2020

WORLD EXPERIENCE IN FINANCIAL MARKET REGULATION

A. Botirov

Tashkent Financial Institute

B. Boyev

Tashkent Financial Institute

D. Mutalipova

Tashkent Financial Institute

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance>

Recommended Citation

Botirov, A.; Boyev, B.; and Mutalipova, D. (2020) "WORLD EXPERIENCE IN FINANCIAL MARKET REGULATION," *International Finance and Accounting*: Vol. 2020 : Iss. 3 , Article 18.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss3/18>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in International Finance and Accounting by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

MOLIYA BOZORINI TARTIBGA SOLISH BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI

Maqolamizda moliya bozorini tartibga solishning ahamiyati, uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va moliya bozorini tartibga solish bo‘yicha jahon tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, moliya bozorida axborot ochiqligi va ma‘lumotlar shaffofligini ta‘minlash, firibgarliklarning oldini olish, investitsion jozibadorlikni oshirish orqali xalqaro talablarga mos keladigan milliy moliya bozorimizni yaratish uchun xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, moliya bozorini tartibga solish, moliyaviy regulyatorlar, xalqaro moliya bozorini tartibga soluvchi institutlar, qimmatli qog‘ozlar bozori.

МИРОВОЙ ОПЫТ РЕГУЛИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА

В статье анализируется важность регулирования финансового рынка, его роль в экономическом развитии и мировой опыт регулирования финансового рынка. В статье также содержатся выводы и предложения по созданию национального финансового рынка, соответствующего международным стандартам, путем обеспечения информационной открытости и прозрачности данных на финансовом рынке, предотвращения мошенничества и повышения инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: финансовый рынок, регулирование финансового рынка, финансовые регуляторы, международные регулирующие органы финансового рынка, рынок ценных бумаг.

WORLD EXPERIENCE IN FINANCIAL MARKET REGULATION

The article analyzes the importance of financial market regulation, its role in economic development and the world experience in financial market regulation. It also provides conclusions and proposals for creating the national financial market which is appropriate for international standards by ensuring information openness and data transparency in the financial market, preventing fraud and increasing investment attractiveness.

Keywords: financial market, financial market regulation, financial regulators, international financial market regulatory institutions, securities market.

KIRISH

Mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi muhim vazifalardan biridir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmonida ham ushbu masalaga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab qo'yilgan [1]. Moliya bozorlarini tartibga solish axborot assimetriyasining oldini oladi, moliya bozorlaridagi firibgarliklarni kamaytiradi, boshqaruvning buzilishidan himoya qiladi hamda moliya bozorlarida investorlarga ishonch bilan ishlashga imkon beradi. Ishtirokchilar har doim ham ushbu muammolarni mustaqil ravishda harakat qilish orqali hal qila olmaydilar, aksincha, hukumat moliya bozorlarining xavfsizligini ta'minlashi va ularning ishlashini tartibga solib turishi kerak.

Moliya bozorlarini tartibga soluvchi tashkilotlarning ishtirokchilarga tegishli barcha ma'lumotlarni to'liq ochishini ta'minlash oshkoralikka olib keladi. Tartibga solinmagan bozorda sarmoyadorlar ishonchli ma'lumotga ega bo'lmaydilar, chunki kompaniyalar ba'zi ma'lumotlarni oshkor qilmaydi. Investorlar to'liq ma'lumotga muhtoj, chunki noaniq va ishonchli bo'lmagan ma'lumotlar asosida biznesni olib borish va investitsiya kiritish xavfli hisoblanadi. Tartibga solish moliya bozorlarini faoliyatini yaxshilash, ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash, investorlarni jalb qilish imkonini beradi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda moliya bozorlarini tartibga solishni xalqaro darajada o'rganish, mamlakatimizda moliya bozori faoliyatini rivojlantirish mavzuning dolzarbligini ochib beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda moliya bozorlarini tartibga solishning ahamiyati xalqaro darajada ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda. F.Moshirianga ko'ra, jahon miqyosida integratsiyalashgan moliyaviy tizim mavjud bo'lmaganligi sababli milliy va global moliyaviy inqirozlar vaqtida mavjud tartibga solish qoidalari transchegaraviy tartibga solish masalasini hal qilolmadi [2].

K.Amadeo ta'kidlashicha, moliyaviy tartibga solish iste'molchilarning investitsiyalarini himoya qilishini aytib o'tgan. Tartibga solish moliyaviy firibgarlikning oldini oladi va moliya institutlari tomonidan investorlarning pullarini jalb qilish riskini kamaytiradi. Moliyaviy tartibga solish uch asosiy moliyaviy sektorni nazorat qiladi: bank, moliya bozori va iste'molchilar [3].

M.Kavai va E.S.Prasadlarning fikrlariga ko'ra, tartibga solish xususiyatlarini tavsiflaydigan prinsiplarga asoslangan tartibga solish qoidalari iqtisodiy rivojlangan moliya bozorlari uchun ko'proq mos keladi degan fikr ilgari surilgan, ammo bu yondashuv o'zlarining moliyaviy bozorlarini yanada ko'proq innovatsiyalar va tavakkalchiliklarga yo'l ochib rivojlantirmoqchi bo'layotgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tegishlidir [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham moliya bozorini tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishgan. Xususan, professor S.Elmirzayev boshchiligidagi mualliflar jamoasining ta'kidlashlaricha, moliya bozorlarini qonunchilikka zid xatti-harakatlar va firibgarliklardan himoya qilish masalasi jahon hamjamiyati uchun nihoyatda

muhim hisoblanadi. Aynan shuning uchun moliya bozori rivojlangan barcha davlatlarda davlat tomonidan tartibga solishni ham o'z ichiga olgan tartibga solish tizimi shakllangan [5].

I.f.n. S.P.Abdullayevning fikriga ko'ra, O'zbekiston moliya bozorini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish uchun jahon amaliyoti talablariga muvofiq O'zbekiston moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq [6].

SH.Shoha'zamiy moliya bozorini tartiblashtirish uning funksional va operatsion tarkiblarining uyg'unlikdagi faoliyatini, undagi barcha ishtirokchilarning moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq barcha munosabatlarini tizimli tarzda barqarorlashtirish va samarali rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan vakolat berilgan organlar tomonidan o'rnatilgan unga oid me'yorlar majmuasiga mos ravishda muvofiqlashtirish va nazorat qilishning tartibli jarayoni ekanligini aytib o'tgan [7].

J.Ataniyazov va E.Alimardonovlar bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya bozori rivojlanishiga qarab uning ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish ikki xil bo'lishini aytgan, ya'ni ular davlat va bozor orqali tartibga solish shakllari hisoblanadi. Moliya bozorini bozor orqali tartibga solish iqtisodiyotning qiymat va talab-taklif qonuniga asoslanadi. Moliya bozori ko'plab subyektiv omillar, ya'ni siyosiy, ijtimoiy, informatsion, madaniy va boshqa omillar ta'sirida har doim ham o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ega emas. Bunday holatda davlat aralashuvi talab etiladi. Moliya bozorini davlat va bozor orqali tartibga solinishi o'zaro bir-birini to'ldirib boradi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya bozorlarini tartibga solish barcha mamlakatlar uchun dolzarflik kasb etadi, chunki hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda moliya bozorining katta o'rni bor. Bugungi kunda bir qator xalqaro standartlashtirish organlari mavjud bo'lib, ularning bir guruhi moliyaviy tartibga solishning quyidagi uchta asosiy yo'nalishga bo'linadi:

- Bank faoliyatini tartibga solishda Bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasi;
- Qimmatli qog'ozlar hamda derivativlarni tartibga solish bo'yicha Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti (IOSCO);
- Sug'urtani tartibga solish bo'yicha Sug'urta nazoratchilarining xalqaro assotsiatsiyasi (IAIS) [9].

Ushbu xalqaro tashkilotlar moliya bozorlarini tartibga solishda xalqaro darajadagi standartlarni joriy etish, banklar faoliyatini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar va derivativlar bozorlarini tartibga solish, moliya bozorlari ishtirokchilari faoliyatlarini yaxshilash va tartibga solish bilan shug'ullanmoqda.

Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi va boshqa 18 mamlakatdan tashkil topgan G-20 xalqaro moliyaviy inqirozdan keyin tartibga soluvchi islohotlarni xalqaro darajada muvofiqlashtirishga rahbarlik qildi. Amaliy kelishuvlarni tuzish va tartibga solish islohotlarini amalga oshirish uchun G-20 ushbu

mamlakatlarning moliya vazirlari va moliyaviy tartibga soluvchi tashkilotlari, 4ta rasmiy xalqaro moliyaviy institutlar va standartlashtirish bo'yicha oltita xalqaro tashkilotdan (shu jumladan yuqorida sanab o'tilganlardan) iborat bo'lgan Moliyaviy Barqarorlik Kengashini (FSB) tuzgan. Ushbu moliyaviy institutlar birgalikda xalqaro darajada moliyaviy munosabatlarni standartlashtirish, shuningdek, moliya bozorlarini tartibga solishni amalga oshiradi.

Moliyaviy mutaxassis J.Boyan moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda moliyaviy mutaxassislar qaysi xalqaro tartibga soluvchi tashkilotlarni e'tirof etishi bo'yicha so'rovnoma o'tkazdi (1-jadval). So'rovnoma asosida tuzilgan ro'yxat keng qamrovli bo'lganligini ta'kidlash joiz.

1-jadval

Moliyaviy munosabatlarni amalga oshirishda moliyaviy mutaxassislar eng ko'p e'tirof etgan xalqaro tartibga soluvchi tashkilotlar [10]

№	Tashkilot nomi	Qisqa nomi	Davlat	№	Tashkilot nomi	Qisqa nomi	Davlat
1.	Fransiya prudensial nazorat va qarorlarni qabul qilish markazi	ACPR	Fransiya	32.	Federal moliyaviy institutlarni tekshirish konsulligi	ACPR	AQSh
2.	Moliya bozorlarini tartibga solish tashkiloti	AMF	Fransiya	33.	Federal moliyaviy nazorat assotsiatsiyasi	FFSA	Germaniya
3.	Abu-Dabi xalqaro bozori	ADGM	BAA	34.	Federal uy-joylarni moliyalashtirish agentligi	FHFA	AQSh
4.	Avstraliya prudensial tartibga solish boshqarmasi	APRA	Avstraliya	35.	Moliyaviy nazorat tashkiloti	KNF	Polsha
5.	Moliyaviy nazorat tashkiloti	ASF	Ruminiya	36.	Shveysariya moliya bozorini nazorat qilish tashkiloti	FINMA	Shveysariya
6.	Moliyaviy tizimni nazorat qilish boshqarmasi	ASFI	Boliviya	37.	Moliya sohasini tartibga solish tashkiloti	FINRA	AQSh
7.	Portugaliya Banki	-	Portugaliya	38.	Federal zaxira banki	FRB	AQSh
8.	Gretsiya Banki	-	Gretsiya	39.	Moliyaviy xizmatlar agentligi	FSA	Yaponiya
9.	Italiya Banki	-	Italiya	40.	Gonkong pul-kredit tashkiloti	HKMA	Gonkong
10.	Bank nazorati bo'yicha bank qo'mitasi	BIS	Dunyo bo'ylab	41.	Axborot komissarlari idorasi	ICO	Buyuk Britaniya
11.	Angliya Banki	BOE	Buyuk Britaniya	42.	Kanada investitsiya sanoatini tartibga solish tashkiloti	IIROC	Kanada
12.	Irlandiya Markaziy Banki	-	Irlandiya	43.	Man oroli hukumati	IOM	Man oroli
13.	BAA Markaziy Banki	-	BAA	44.	Singapur pul-kredit tashkiloti	MAS	Singapur
14.	Iste'molchilarni moliyaviy himoya qilish byurosi	CFPB	AQSh	45.	Kelajak majburiy fondlarini rejalashtirish tashkiloti	MPFA	Gonkong
15.	AQSh tovar xom ashyosi fyucherslari bo'yicha savdo komissiyasi	CFTC	AQSh	46.	Sug'urta komissarlari milliy assotsiatsiyasi	NAIC	AQSh
16.	Milliy fyucherslar assotsiatsiyasi	NFA	AQSh	47.	Valyutani nazorat qilish tashkiloti	OCC	AQSh
17.	Kayman orollari pul-kredit tashkiloti	CIMA	Kayman orollari	48.	Sug'urta komissarlari idorasi	OCI	Gonkong
18.	Portugaliya qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha komissiyasi	CMVM	Portugaliya	49.	Moliya institutlari rahbarlari idorasi	OFSI	Kanada
19.	Milliy qimmatli qog'ozlar bozori komissiyasi	CNMV	Ispaniya	50.	Hisob-kitob auditorlari instituti	OROC	Portugaliya
20.	Italiya kompaniyalari va birja komissiyasi	CONSOB	Italiya	51.	Ontario qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyasi	OSC	Kanada
21.	Moliya sohasi nazorati tashkiloti	CSSF	Lyuksemburg	52.	Prudensial tartibga solish tashkiloti	PRA	Buyuk Britaniya

22.	Moliyaviy xizmatlar boshqarmasi	DFS	AQSh	53.	Hindiston zaxira banki	RBI	Hindiston
23.	Dubay moliyaviy xizmatlar boshqarmasi	DFSA	BAA	54.	Qimmatli qog'ozlar va tovarlar tashkiloti	SCA	BAA
24.	Yevropa Bank Assosiatitsiyasi	EBA	Yevropa Ittifoqi	55.	Hindistonning qimmatli qog'ozlar va birja kengashi	SEBI	Hindiston
25.	Yevropa Markaziy Banki	ECB	Yevropa Ittifoqi	56.	Qimmatli qog'ozlar birjasi bo'yicha komissiya	SEC	AQSh
26.	Risklarni boshqarish bo'yicha Yevropa Kengashi	ERMC	Yevropa Ittifoqi	57.	Qimmatli qog'ozlar va fyucherslar bo'yicha komissiya	SFC	Gonkong
27.	Qimmatli qog'ozlar bozorlari bo'yicha Yevropa Assosiatitsiyasi	ESMA	Yevropa Ittifoqi	58.	Janubiy Afrika zaxira banki	-	JAR
28.	Yevropa Komissiyasi	-	Yevropa Ittifoqi	59.	Yagona nazorat tashkiloti	SSM	Yevropa Ittifoqi
29.	Moliyaviy Aloqalar Assosiatitsiyasi	FCA	Buyuk Britaniya	60.	Buyuk Britaniya listing tashkiloti	UKLA	Buyuk Britaniya
30.	Kanada moliyaviy iste'mol agentligi	FCAC	Kanada	61.	Gonkong pul-kredit ma'muriyati	HKMA	Gonkong
31.	Omonatlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi	FDIC	AQSh		-	-	-

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, moliyaviy mutaxassislar tomonidan, asosan, xalqaro darajadagi moliyaviy institutlar, rivojlangan davlatlardagi moliyaviy tashkilotlar bilan moliyaviy aloqalar yo'lga qo'yilganligini ta'kidlashgan. Bular orasida AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va uning tarkibidagi davlatlarning moliyaviy tashkilotlarni alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz.

Moliya bozorlari munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilish bilan bog'liq muammolar Osiyoning rivojlanayotgan iqtisodiyotlarida ko'payib bormoqda, chunki xorijiy moliyaviy kompaniyalar mintaqadagi moliya bozorlaridagi ishtirokini oshirmoqda va mintaqaning moliyaviy kompaniyalari o'zlarining tashqi operatsiyalari ko'lamini ham kengaytirmoqda. Bundan tashqari, Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy aloqalarning o'sishi mintaqaning o'zida mamlakatlararo moliyaviy operatsiyalar hajmi tez sur'atlar bilan o'sishini anglatadi. Osiyo uchun moliyaviy integratsiyalashuvning asosiy jihati mintaqaga va undan tashqariga yo'naltirilgan kapital oqimi bilan bog'liq bo'lib, ularning har ikkisi ham so'nggi yillarda keskin o'smoqda. Quyidagi omillar Osiyoda mamlakatlararo moliya bozori munosabatlarini samarali tartibga solish zaruriyatini kuchaytiradi:

1. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan kapital kirib kelishi;
2. Osiyo banklarining o'sib borayotgan xalqaro ekspozitsiyasi;
3. Osiyo uy xo'jaliklarining chet el investitsiyalariga bo'lgan talabi;
4. Institutsional investorlarning roli [11].

Osiyo mintaqasida joylashgan institutsional investorlar, shu qatorda pensiya jamg'armalari ham xususiy, ham davlat mablag'larning chet elga chiqishi uchun muhim kanal bo'lib xizmat qiladi. Milliy valyuta zaxiralarining bir qismini boshqaradigan suveren fondlar chet el aktivlari qiymati nisbatan arzon bo'lgan taqdirda ham chet elga investitsiyalarni izlashlari mumkin va bu holat global moliyaviy bozorlar barqarorlashgandan keyin ham saqlanib qolishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar Osiyoda transchegaraviy nazoratni talab qiladi. Mintaqadagi boshqaruv organlari mintaqada ham jahon moliya bozorlaridagi kabi katta moliyaviy integratsiya jarayonida bir qator qiyinchiliklarga

duch kelishmoqda. Ushbu tendensiyalar tartibga solishda qo‘shimcha 3ta jihatni ko‘rib chiqish lozimligini ko‘rsatadi:

1. Mamlakat ichida regulyatorlar orqali nazoratni yanada kengaytirish zarurligi.

Mamlakatlararo operatsiyalar tabiiy ravishda qo‘shimcha risklarni, ayniqsa, valyuta riskini yuzaga keltiradi. Mamlakatdagi tartibga soluvchi tashkilotlar alohida moliyaviy kompaniyalar nuqtai nazaridan ham, to‘liq tizim nuqtai nazaridan ham mamlakatlararo operatsiyalar ta‘siridan kelib chiqadigan turli xil risklar bilan kurashmoqda. Moliyaviy qiyinchilikka uchragan kompaniyalarga o‘zini tiklab olishga yo‘naltirish uchun moliyaviy kompaniyalarning bo‘limlarida kapital talabini qo‘yish prinsipini keng qo‘llash, kompaniyaning alohida operatsiyalariga kapital talablarini aniq belgilab qo‘yish kerak.

2. Xalqaro regulyatorlarni muvofiqlashtirish zarurligi.

Moliyaviy tartibga solish bo‘yicha G-20 ishchi guruhining ta‘kidlashicha, xalqaro nazoratchilar guruhlarini orqali boshqa milliy tartibga soluvchi organlar bilan ma‘lumot almashish milliy va xalqaro moliyaviy kompaniyalar monitoringini kuchaytirishi mumkin. Tartibga solish choralari hanuzgacha davlat tomonidan boshqariladigan tartibga soluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu jarayon ma‘lumot almashishni yaxshilaydi va samarali amaliyotni keng qo‘llashda qo‘shimcha kanal vazifasini o‘taydi.

3. Mintaqadagi regulyatorlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni amalga oshirishning zarurligi.

Bu mintaqaviy moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun muhim. G-20 ishchi guruhi tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oya asosan mamlakatlararo operatsiyalarni amalga oshiradigan moliyaviy kompaniyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni muvofiqlashtirishi yoki hech bo‘lmaganda ma‘lumotlarni o‘zaro almashishni nazarda tutadi. Moliya bozori rivojlanishining darajasi, institutsional sifati va tartibga solish ko‘lamiga ega mamlakatlar o‘rtasida muvofiqlashtirish ishlarini olib borishda bir qator amaliy muammolar mavjud. Osiyo Taraqqiyot Banki va Amerika Taraqqiyot Banki kabi mintaqaviy ko‘p tomonlama institutlar ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlashda yordam berishi mumkin. Masalan, moliya vazirligi xodimlari, Markaziy bank xodimlari va moliyaviy tartibga soluvchilar o‘z faoliyatini mintaqaviy moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun Osiyo moliyaviy barqarorligi bo‘yicha muvofiqlashtirish ishlarini tashkil etishi mumkin [12].

Shveysariyada Shveysariya Milliy banki moliyaviy barqarorlik uchun javobgardir. Shveysariya Milliy Banki (SNB) barqaror moliyaviy tizimni individual komponentlari, ya‘ni moliyaviy vositachilar va moliya bozori infratuzilmasi o‘zlariga tegishli funksiyalarni bajaradi va kutilmagan vaziyatlarga chidamli bo‘ladi. Muhim tizimli to‘lovlar va qimmatli qog‘ozlar bilan hisob-kitob qilish tizimini nazorat qilish Shveysariya Milliy Bankiga yuklatilgan. Shu munosabat bilan Shveysariya Milliy Banki Shveysariya moliya bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA) bilan hamkorlik qiladi va bu ikki moliyaviy institutlarning vazifalari aniq belgilab berilgan. Agar mahalliy banklar o‘zlarining ochiq bozordagi operatsiyalarini qayta moliyalashtira olmasa, Shveysariya Milliy Banki garovga qarshi likvidlilik

yordamini ko'rsatib, so'nggi yordamni amalga oshiruvchi (LoLR) sifatida ishlaydi. Bank sektorini boshqarish Shveysariya moliyaviy bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA) zimmasiga yuklangan. Shveysariya moliyaviy bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA)ning maqsadi kreditorlarni, investorlarni himoya qilish va moliya bozorlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashdir. Shveysariya moliyaviy bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA) moliya bozorlari ishtirokchilarini nazorat qilish va tartibga solish uchun javobgardir. Shveysariya moliyaviy bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA) banklar, sug'urtalovchilar, fond birjalari, qimmatli qog'ozlar dilerlari, jamoaviy investitsiya loyihalari, distribyutorlar va sug'urta vositachilari ustidan vakolatlarga ega. U litsenziyalar beradi va pul yuvishga qarshi kurash olib boradi. Bundan tashqari, u sanksiyalarni qo'llaydi va kerak bo'lganda qayta tashkil etish va bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni amalga oshiradi. Shveysariya moliyaviy bozorini nazorat qilish boshqarmasi (FINMA) aksiyalar joylashtirilishini nazorat qiladi, ish yuritadi, qarorlar chiqaradi va qonunbuzarlikda gumon qilingan hollarda Shveysariya Federal Moliya Departamentiga (FDF) jinoiy shikoyatlarni yuboradi. U ochiq savdolarini nazorat qiladi va Shveysariya qo'shib olish kengashining (TOB) qarorlariga qarshi apellyatsiya sudi sifatida ishlaydi. U qonunchilik jarayonida ishtirok etadi, vakolatli bo'lgan qarorlar chiqaradi, moliya bozori to'g'risidagi qonunlarni sharhlash va qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar olib boradi va o'z-o'zini tartibga solish standartlari bo'yicha javobgardir [13].

So'nggi moliyaviy inqirozga qarshi kurashishda 2010-yilda Dodd-Frank Uoll Stritdagi Islohotlar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun (Dodd-Frank qonuni; PL 111-203) va 2008-yildagi Uy-joy va iqtisodiy tiklanish to'g'risidagi qonun (HERA; PL 110-289) orqali tartibga solish tizimiga o'zgarishlar kiritdi. Tizimning parchalanib ketgan mohiyatini hal qilish uchun Dodd-Frank qonuni G'aznachilik kotibi boshchiligidagi tartibga soluvchi konsullik Moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish kengashini (FSOC) tuzdi.

2-jadval

AQShda federal darajadagi regulyatorlarning guruhlanishi [14]

№	Federal regulyatorlar guruhlari	Guruhlar tarkibidagi tashkilotlar nomi
1.	Depozitariy regulyatorlari	<ul style="list-style-type: none"> • Valyuta nazorati bo'limi (OCC) • Omonatlarni sug'urtalash bo'yicha federal korporatsiya (FDIC) • Banklar uchun federal zaxira • Kredit uyushmalari uchun Kredit uyushmalari milliy ma'muriyati (NCUA)
2.	Qimmatli qog'ozlar bozori regulyatorlari	<ul style="list-style-type: none"> • Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya (SEC) • Birja savdolari bo'yicha komissiya (CFTC)
3.	Hukumat tomonidan homiylik qilinadigan kompaniyalar (GSE) regulyatorlari	<ul style="list-style-type: none"> • Uy-joylarni moliyalashtirish bo'yicha federal agentlik (FHFA) • Fermer kreditlari ma'muriyati (FCA)
4.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish regulyatori	<ul style="list-style-type: none"> • Dodd-Frank qonuni tomonidan yaratilgan iste'molchilarni moliyaviy himoya qilish byurosi (CFPB)

2-jadvalda AQShda federal darajadagi regulyatorlarning guruhlarga bo'linishi keltirilgan. Ushbu guruhlanishda moliya bozori regulyatorlari asosiy o'rin tutadi.

Depozitariy va qimmatli qog'ozlar bozori regulyatorlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Moliyaviy tartibga solishda rol o'ynaydigan boshqa subyektlar idoralararo organlar, davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar va xalqaro tartibga soluvchi tashkilotlardir. Tartibga soluvchi tashkilotlar litsenziyalash, ro'yxatga olish, tartibga solish, nazorat qilish, ijro etish va qaror qilish vakolatlaridan foydalangan holda moliya bozorlari va moliyaviy institutlarni tartibga soladi. Amalda kompaniyaning qay tarzda va kim tomonidan boshqarilishi, u amalga oshiradigan faoliyat turlariga emas, balki ko'proq kompaniyaning huquqiy maqomiga bog'liqdir. Bu shuni anglatadiki, ikki xil kompaniya tomonidan olib borilayotgan o'xshash faoliyat turli xil tartibga soluvchi organlar tomonidan turlicha tartibga solinishi mumkin. Moliyaviy kompaniyalar bir nechta subyekt tomonidan tartibga solinishi mumkin. Masalan, kompaniya tartibga solinadigan faoliyat bilan shug'ullanganda tashkilot boshqaruvchisi va faoliyatni tartibga soluvchi organ tomonidan nazorat qilinadi.

Moliyaviy tartibga solish turli xil maqsadlarga erishishga qaratilgan: moliya bozorining samaradorligi va yaxlitligi, ishtirokchilar va investorlarning himoyasi, kapitalning shakllanishi yoki kreditdan foydalanish, soliq to'lovchining himoyasi, noqonuniy faoliyatning oldini olish va moliyaviy barqarorlik. Ushbu maqsadlarga erishish uchun turli xil tartibga solish turlari - ehtiyotkorlik (xavfsizlik va barqarorlik), oshkor qilish, standartlar, raqobat, narxlar va stavkalarni tartibga solish qo'llaniladi. Ko'pgina kuzatuvchilar, tartibga solish tizimining tuzilishi tartibga solish natijalariga ta'sir qiladi, deb hisoblashadi. Shu sababli, tartibga solish tizimini tuzishning eng yaxshi usuli haqida Kongressda tez-tez muhokama qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliya bozorlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rini oshirish uchun samarali tartibga solish tizimi o'rnatilishi lozim. Moliya bozorini tartibga soluvchi organlar ishtirokchilar va investorlarning firibgarlik va manipulyatsiyadan aziyat chekmasligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Shuningdek, regulyatorlar bozorlarning samarali ishlashini va bozor ishtirokchilarining bozor yaxlitligiga ishonchlarini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Likvidlilik, keng qamrovdagi ishtirokchilar hamda ishonchli ma'lumotlarning mavjudligi moliya bozorlarining samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Ushbu faktorlarni moliya bozorlarida yuzaga keltirish, ishtirokchilar faoliyatini mavjud xalqaro standartlarga moslashtirish mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirish imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosa va takliflarni beramiz:

1. Moliya bozorlarida tartibga solish usullarini, ya'ni litsenziyalash, nazorat qilish, qoidalar ishlab chiqish, hisobotlar taqdim etish, standartlashtirish, ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilash kabilarni keng qo'llash firibgarlikning oldini olish va moliya bozorini rivojlantirishda yordam beradi.

2. Moliya bozorini tartibga solishda asosiy maqsadlardan biri sifatida investitsion jozibadorlikni oshirish ta'kidlanadi. Bunda moliya bozorini tartibga solish orqali moliya bozorining faoliyat mexanizmlarini ishlab chiqish, moliyaviy

barqarorlikni ta'minlash va investorlarning huquqlarini himoya qilish orqali investorlarni jalb qilish imkoni yuzaga keladi.

3. Hukumat tomonidan mamlakatimiz moliya bozorining Osiyodagi va xalqaro darajadagi moliya bozorlarini tartib soluvchi tashkilotlar bilan, shuningdek, jadal rivojlanayotgan davlatlar moliya bozorlari bilan integratsiyalashuvi yo'llari ko'rib chiqilishi lozim. Bu xalqaro darajadagi talablarga mos keladigan moliya bozorini shakllantirish, xorijiy mamlakatlar moliya bozorlarini tartibga solish amaliyotini o'rganish va milliy moliya bozorimizga moslashtirish imkoniyatini taqdim etadi.

4. Mamlakatimizda moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihat shundaki, moliya bozorini tartibga solish bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar faoliyati yo'lga qo'yilishi bilan birga bozor orqali tartibga solish shakllarining ishlashiga yo'l ochib berilishi lozim. Bozor regulyatorlarining ishlashi narx, raqobat, talab va taklifning yuzaga kelishida muhim jihat hisoblanadi.

5. Moliya bozorimizda axborot ochiqligi va ishonchli ma'lumotlar mavjudligini ta'minlash ishtirokchilarga samarali faoliyat yuritish "eshik"larini ochadi. Bu moliya bozoriga kirmoqchi bo'lgan ishtirokchilarga ishonch beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 17.02.2017. <https://lex.uz/docs/-3107036>

2. Fariborz Moshirian. The global financial crisis and the evolution of markets, institutions and regulation. Journal of Banking & Finance. Volume 35, Issue 3, March 2011. Page 502. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2010.08.010>. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0378426610003110>

3. K.Amadeo. Financial Regulations. The balance. March 14, 2020. <https://www.thebalance.com/financial-regulations-3306234>

4. Masahiro Kawai and Eswar S. Prasad. Financial Market Regulation and Reforms in Emerging Markets. Asian Development Bank Institute, Tokyo 100-6008, Japan. The Brookings Institutions, Washington DC 20036, US. 2011. Page 4. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/159338/adbi-financial-market-regulation-and-reforms-emerging-markets-highlights.pdf>

5. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. Darslik. Iqtisod-moliya. Toshkent. 2019. 298-bet.

6. S.P.Abdullaev. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliya bozori salohiyatidan foydalanish yo'nalishlari. «Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv sharoitida O'zbekiston bank-moliya sohasini modernizatsiyalashning zamonaviy tendensiyalari» mavzusida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2015. https://uba.uz/uz/press_center/publications/3054/38260/

7. Sh.Shoha'zamiy. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik.-T.: "Fan va texnologiya", 2012. 289-bet.

8. J. Ataniyazov, E. Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 336-bet. http://el.tfi.uz/images/Xalqaro_moliya_munosabatlari_a4e0e.pdf

9. Marc Labonte. Who regulates whom? An overview of the U.S. financial regulatory Framework. Congressional Research Service. March 10, 2020. Page 26.

10. Joe Boyhan. Know Your Third Party, KYTP, vendor risk, Regulation, Third party risk. February 7, 2017. <https://mco.mycomplianceoffice.com/blog/a-z-list-of-financial-regulators>

11. Masahiro Kawai and Eswar S. Prasad. Financial Market Regulation and Reforms in Emerging Markets. Asian Development Bank Institute, Tokyo 100-6008, Japan. The Brookings Institutions, Washington DC 20036, US. 2011. Page 17. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/159338/adbi-financial-market-regulation-and-reforms-emerging-markets-highlights.pdf>

12. Masahiro Kawai and Eswar S. Prasad. Financial Market Regulation and Reforms in Emerging Markets. Asian Development Bank Institute, Tokyo 100-6008, Japan. The Brookings Institutions, Washington DC 20036, US. 2011. Page 18. <https://www.adb.org/sites/default/files/publication/159338/adbi-financial-market-regulation-and-reforms-emerging-markets-highlights.pdf>

13. Andrew D. Schmulow. The four methods of financial system regulation: an international comparative survey. November, 2015. DOI: 10.2139/ssrn.2556545. <https://www.researchgate.net/publication/290434254>

14. Marc Labonte. Who regulates whom? An overview of the U.S. financial regulatory Framework. Congressional Research Service. March 10, 2020. Page 1.